


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib




Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **4413,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **5,8** % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **364,1** mlrd. so'mni (**1,9** % ga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **4049,4** mlrd. so'mni (**6,1** % ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **508,1** mlrd. so'mni (**32,9** % ga kamaydi) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Uyushmagan savdo, mlrd. so'm





UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **4 413,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **5,8 %** ga kamaydi.



Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **91,8 %** va yirik korxonalar hissasiga **8,2 %** to'g'ri keldi.



ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Jizzax shahri **29,5 %** ulush bilan **1305,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Jizzax sh.
1 305,9

Baxmal
393,8

G'allaorol
334,8

Paxtakor
191,7


Mirzacho'l
124,0

Arnasoy
101,0

ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Yangiobod tumani **1,1 %** ulush bilan **47,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	
2019- yil yanvar-avgust	2019- yil yanvar-avgust	6,1 %
2020- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust	6,1 %

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, **4049,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **6,1 %** ga kamaygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **91,8 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Sharof Rashidov (99,8 %), Arnasoy (98,6 %), Zafarobod (98,5 %), Yangiobod (98,0 %), G'allaorol (98,1 %), Zarbdor (97,6 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatili.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mln. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	4413480,3	94,2	364054,7	98,1	4049425,6	91,8
Jizzax sh.	1305819,3	96,5	260493,3	96,7	1045326,0	80,1
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	101034,2	88,1	1389,3	184,9	99644,9	98,6
Baxmal	393766,7	96,0	38848,4	89,4	354918,3	90,1
G'allaorol	334792,7	88,8	6319,2	110,3	328473,5	98,1
Sharof Rashidov	719427,5	94,1	1321,4	142,0	718106,1	99,8
Do'stlik	156293,2	92,3	4350,9	123,6	151942,3	97,2
Zomin	629827,6	94,5	20626,1	119,7	609201,5	96,7
Zarbdor	152316,6	93,1	3661,2	140,5	148655,4	97,6
Zafarobod	86981,7	95,8	1319,4	165,7	85662,3	98,5
Mirzacho'l	124033,6	91,2	3066,2	125,2	120967,4	97,5
Paxtakor	191718,4	96,7	17933,1	85,0	173785,3	90,6
Forish	170144,6	92,4	3767,7	133,7	166376,9	97,8
Yangiobod	47324,2	85,7	958,5	187,8	46365,7	98,0

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **1,9 %** ga kamaydi va **364,1** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **8,2 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **4 049,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **6,1 %** ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **91,8 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Sharof Rashidov (99,8 %), Arnasoy (98,6 %), Zafarobod (98,5 %), Yangiobod (98,6), G'allaorol (98,0 %), Forish (97,8%) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 8,2 % ni tashkil etib, eng katta ulush Jizzax shahri (19,9 %), Baxmal (9,9 %), Paxtakor (9,4 %) va Zomin (3,3 %) tumanlarida kuzatildi.



JIZZAX VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2020- yil yanvar-avgust oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 177,9** ming so'm (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **7,8** % ga kamaydi), hududlar kesimida barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Jizzax shahri (**7 323,7** ming so'm), Zomin (**3 833,4** ming so'm) va Sharof Rashidov (**3 243,6** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da
Jizzax viloyati	3177,9	92,2
Jizzax sh.	7323,7	94,7
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	2196,4	87,0
Baxmal	2512,9	93,9
G'allaorol	1944,2	86,9
Sharof Rashidov	3243,6	91,4
Do'stlik	2378,9	90,6
Zomin	3833,4	92,4
Zarbdor	1762,9	90,6
Zafarobod	1739,6	94,1
Mirzacho'l	2389,9	89,1
Paxtakor	2570,0	94,9
Forish	1835,4	91,0
Yangiobod	1678,2	84,2

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Dehqon
bozorlari




Chorva (parranda)
bozorlari


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **508,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **32,9 %** ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **218,6** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **26,9 %** ga kamaydi), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **289,5** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **36,9 %** ga kamaydi) .

**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-avgust oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **218,6** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **289,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	508,1	67,1	218,6	73,1	289,5	63,7
Jizzax sh.	92,1	69,7	92,1	68,2	0	0
tumanlar:						
Arnasoy	16,3	61,1	4,1	67,8	12,2	67,0
Baxmal	84,8	90,6	13,8	159,5	71,0	71,4
G'allaorol	52,9	55,5	21,2	56,1	31,7	59,7
Sharof Rashidov	58,0	51,1	0	0	58,0	58,2
Do'stlik	20,5	72,2	11,7	69,3	8,8	63,1
Zomin	77,8	61,5	37,1	76,0	40,7	55,0
Zarbdor	30,0	77,4	4,8	75,4	25,2	72,0
Zafarobod	0	0	0	0	0	0
Mirzacho'l	14,2	62,2	5,8	84,4	8,4	51,9
Paxtakor	28,0	100,4	11,2	82,1	16,8	121,6
Forish	23,4	63,5	15,7	91,7	7,7	45,9
Yahgiobod	10,1	67,3	1,1	59,0	9,0	70,1

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



2,7
mlrd. so'm

Tuzlamalar



87,0
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari



7,0
mlrd. so'm

Quritilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

36,2
mlrd. so'm



Non va non
mahsulotlari



14,8
mlrd. so'm

Sut va sut
mahsulotlari

6,8
mlrd. so'm



Tuxum

28,5
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)

7,9
mlrd. so'm



Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar

5,6
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

2020- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning Zafarobod va Sharof Rashidov tumanlaridan tashqari barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **218,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**87,0** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

5,7
mlrd. so'm



Ziravorlar

16,4
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2020- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning Jizzax shahri va Zafarobod tumanidan tashqari barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **289,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **214,4** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **68,0** mlrd. so'mni, otlar **5,6** mlrd. so'mni, parrandalar **1,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O‘SISH SUR‘ATLARI**

2020- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,4 %** ni tashkil etib, **60,8** mlrd. so‘mga yetdi va 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **34,1 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **100,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda



	Jami, mln. so‘m	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	60774,7	65,9	60774,7	65,9
Jizzax sh.	30931,6	64,3	30931,6	64,3
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	401,9	73,1	401,9	73,1
Baxmal	1100,6	72,1	1100,6	72,1
G‘allaorol	3763,3	66,0	3763,3	66,0
Sh.Rashidov	10356,8	66,8	10356,8	66,8
Do‘stlik	1997,5	67,4	1997,5	67,4
Zomin	4187,8	66,5	4187,8	66,5
Zarbdor	1648,1	70,5	1648,1	70,5
Zafarobod	546,9	69,2	546,9	69,2
Mirzacho‘l	2085,1	70,2	2085,1	70,2
Paxtakor	1793,3	69,7	1793,3	69,7
Forish	1633,8	65,5	1633,8	65,5
Yangiobod	328,0	71,3	328,0	71,3

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik
korxonalar




Mikrofirma va
kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 214,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **29,4 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **245,1** mlrd. so'mni (**66,9 %** ga kamayish), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **969,7** mlrd. so'mni (**1,0 %** ga kamaydi) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O‘SISH SUR‘ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega yirik korxonalar Yangiobod (155,7 %), Baxmal (139,3 %) va Forish (118,9 %) tumanlarida kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o‘zgarish sur‘atlari Zomin (98,3 %), Yangiobod (101,2 %), Forish (100,7 %), Baxmal (115,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o‘shish sur‘atlari, foizda




	Jami, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	1214,8	70,6	245,1	33,1	969,7	99,0
Jizzax sh.	673,9	67,1	127,2	28,1	546,7	99,1
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	10,4	34,5	8,1	29,1	2,3	100,6
Baxmal	43,4	115,4	21,4	139,3	22,0	98,8
G‘allaorol	29,8	91,9	0,7	32,9	29,1	96,1
Sh.Rashidov	88,9	78,3	10,2	29,4	78,7	99,7
Do‘stlik	58,1	63,1	10,8	25,5	47,3	95,0
Zomin	132,3	98,3	4,4	75,1	127,9	99,4
Zarbdor	38,7	66,0	22,1	52,6	16,6	99,5
Zafarobod	21,5	63,2	12,4	49,8	9,1	100,2
Mirzacho‘l	17,0	34,3	13,7	29,6	3,3	101,1
Paxtakor	25,2	44,3	13,6	30,2	11,6	98,3
Forish	69,0	100,7	0,3	118,9	68,7	100,6
Yangiobod	6,6	101,2	0,2	155,7	6,4	100,2

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar- avgust oylari yakuniga ko'ra, **969,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan (**1,0 %**) ga kamaydi. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa (**79,8 %**) ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Forish (99,6 %), Yangiobod (97,2%), G'allaorol (97,6%), Zomin (96,7 %), Sharof Rashidov (88,5 %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Mirzacho'l (19,4 %), Arnasoy (21,9 %) tumanlariiga to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:72-221-51-26